

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XUSANOV UMIDJON SHOKIRJONOVICH**

**GULXAYRI VA SEDANA O‘SIMLIKLARI ASOSIDA XALQ TABOBATI  
UCHUN TOVARLAR OLISH VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09 – Tovarlar kimyosi**

**14.00.41 – Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

<b>Xusanov Umidjon Shokirjonovich</b> Gulxayri va sedana o‘simliklari asosida xalq tabobati uchun tovarlar olish va ularni sinflash.....	3
<b>Хусанов Умиджон Шокиржонович</b> Получение и классификация препаратов для народной медицины на основе растений алтей лекарственный и чернушка посевная.....	21
<b>Khusanov Umidjon Shokirzhonovich</b> Obtaining and classification of preparations for traditional medicine based on plants <i>Althea officinalis</i> and <i>Nigella sativa</i> L	39
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	43

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XUSANOV UMIDJON SHOKIRJONOVICH**

**GULXAYRI VA SEDANA O‘SIMLIKLARI ASOSIDA XALQ TABOBATI  
UCHUN TOVARLAR OLISH VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09 – TOVARLAR KIMYOSI  
14.00.41 – XALQ TABOBATI**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/K573 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saxifasida ([www.adu.uz](http://www.adu.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbarlar:**

**Asqarov Ibrohim Rahmonovich**

kimyo fanlari doktori, professor

**Muminov Muydinjon**

kimyo fanlari doktori, professor v.b.

**Rasmiy opponentlar:**

**Xojimatov Maxsaddbek Muydinovich**

kimyo fanlari doktori, dosent

**Dexqonov Raxmatilla Sultonovich**

kimyo fanlari nomzodi, dosent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo‘qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “\_” \_\_\_soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100 Andijon sh., Universitet ko‘cha. 129. Tel.: (99874)223 88 30, faks: (99874) 223 84 33

Dissertatsiyasi bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko‘ch. 129. Tel.: (99874) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33) e-mail: [agsu\\_info@edu.uz](mailto:agsu_info@edu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023 yil \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**X.Isaqov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
raisi, tex.f.d., professor

**M.M.Mo‘minjonov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, k.f.d.

**Sh.V.Abdullaev**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, k.f.d., professor

## **KIRISH. (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda mahalliy xomashyolar asosida yallig‘lanishni oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy oziq-ovqat mahsulotlari turini ko‘paytirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada xalq tabobatida keng qo‘llaniladigan mahalliy dorivor o‘simliklar asosida sintetik dori vositalarining o‘rnini to‘ldiruvchi, tarkibida yallig‘lanish tizimini mustahkamlash xususiyatiga ega bo‘lgan biologik faol birikmalar, makro va mikroelementlar saqlagan tabiiy, zararsiz, ekologik toza oziq-ovqat qo‘shimachilarini ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish hamda xalq tabobatida qo‘llash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahonda insonlarning yallig‘lanish kasalliklarga chalinishini oldini olish va davolash maqsadida ushbu kasalliklarni davolash xususiyatiga ega kimyoviy birikmalar saqlagan tabiiy oziq-ovqat qo‘shimachilari ishlab chiqish, ularning kimyoviy tarkibini aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, moddalar almashinuvini yaxshilovchi, yallig‘lanishni oldini oluvchi kimyoviy birikmalar saqlagan dorivor o‘simliklarni aniqlash, ular asosida inson organizmining himoya tizimini mustahkamlashda xalq tabobati usullari bilan davolash va oldini olishda sintetik dori vositalariga ko‘mak sifatida qo‘llaniluvchi, tarkibida vitamin, polifenol,  $\beta$ -arotin, aminokislotalar kabi tabiiy birikmalar, makro va mikroelementlar saqlagan tabiiy oziq-ovqat qo‘shimachilarini ishlab chiqish, kimyoviy tarkibi asosida TIF, TN bo‘yicha sinflash, hamda amaliyotga joriy etish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda aholining turli kasalliklarga chalinishini oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo‘lgan dorivor o‘simliklar asosida tabiiy oziq-ovqat qo‘shimachilari ishlab chiqilib, kimyoviy tarkibi asosida sinflash borasida muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> “Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish” bo‘yicha amalga oshirilishi muhim bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, gulxayri va sedana dorivor o‘simliklar asosida tarkibida yallig‘lanishga qarshi xususiyatiga ega bo‘lgan birikmalar saqlagan, moddalar almashinuvini yaxshilovchi, bezarar, tabiiy oziq-ovqat qo‘shimachilarini olish, shuningdek ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, xossalari o‘rganish hamda TIF, TN bo‘yicha tovar kodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017 yil 12 apreldagi “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-2884, 2018 yil 25 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3983-Qarori shuningdek, 2020 yil 10 apreldagi PQ-4947 va PQ-4668-son “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистонни тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони

doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Gulxayri va sedana o‘simliklari qadimdan dorivor shifobaxsh xususiyatlari bilan xalq tabobatida ham keng qo‘llanib kelinadi. O‘simliklarni kimyoviy tarkibi va ulardan biologik faol moddalar ajratib olish bo‘yicha Rossiya, Indoneziya, Arabiston va AQSH davlatlaridachuqur izlanishlar olib borilgan.

Rossiyalik olimlar N.K. Rud, A.M.Sampiev, N.A.Davitanyan, A.Harzalloh, M.Kanter kabi olimlar sedana yog‘ini farmatsevtika qo‘llashni aniqladilar. Indoneziyalik olimlar Y.A Sary, K.Chaieb sedana moyidan jarohatlarni davolashni aniqladilar. Arabistonlik olimlar A.Ahmad, A.Husayn, M.Mujib kabi olimlar sedananing terapevtik sohalari bo‘yicha ilmiy ishlar olib borganlar. R.Vudvord, D.Uaytinglar kabi AQSH olimlari sedana moyini suyak iligi hosil bo‘lishini rag‘batlantirishini va saraton o‘smalariga qarshi ishlatilishi bo‘yicha o‘rganishlar olib bordilar.

O‘zbekistonda A.Choriyev gulxayri yetishtirishni agrotexnikasini ishlab chiqdi. A.R. Batoshov yaxlit bargli sedanani dorivor xususiyatlarini o‘rgangan. Kimyo fanlari doktori, professor I.R.Asqarov o‘zining “Tabobat qomusi”, ”Sirli tabobat”, “Fitoterapiya”, “Dalillarga asoslangan xalq tabobati usullari” nomli kitoblarida gulxayri va sedananing shifobaxshligi va bir qancha kasalliklarni oldini olishda, davolashda qo‘llanilishi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tgan. Hozirgi kunda gulxayri va sedanadan oziq-ovqat qo‘shilmalari olinganligi ilmiy adabiyotlarda keltirilgan, lekin tibbiyot amaliyotida, jumladan organizmning turli xil yallig‘lanishga qarshi davolashda foydalanilmagan. Shuningdek, gulxayri va sedana o‘simliklaridan olingan oziq-ovqat qo‘shilmalariga kimyoviy tarkibi asosida TIF, TN bo‘yicha tovar kodlari ishlab chiqilmagan.

Mazkur dissertatsiya ishi dorivor o‘simliklar hisoblangan gulxayri va sedananing urug‘laridan ajratib olingan moylari asosida tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalarini inson organizmdagi bo‘g‘imlar, o‘n ikki barmoqli ichak, buyrak kabi a‘zolarni yallig‘lanishga qarshi foydalanish, ular tarkibiga kiruvchi biologik faol moddalar asosida tegishli yangi tovar kodlari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kabi muammolarni yechishga yo‘naltirilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi:** Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Xalq xo‘jaligi va xalq tabobatida foydalaniladigan tovarlar olish va ularni sinflash” yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Gulxayri va sedana shifobaxsh o‘simliklari urug‘laridan ajratib olish, olingan moylar asosida yangi oziq-ovqat qo‘shilmalari olish, kimyoviy tarkibi va fizik kimyoviy xossalarni aniqlash, hamda ularga kimyoviy tarkibi asosida TIF, TN bo‘yicha yangi tovar kod raqamlari ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** sovuq presslash uskunasida gulxayri va sedana urug‘laridan moylar ajratib olindi, moy ajratib olishning optimal parametrlarini aniqlash;

gulxayri va sedana o‘simliklari moylari tarkibidagi makro va mikroelementlar miqdorini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash;

sedana urug‘larining tarkibidagi aminokislotalar va terpenoidlar miqdorlarini aniqlash;

gulxayri va sedana moylarini hamda ularning har xil nisbatdagi aralashmasini antioksidantlik faollogini aniqlash;

gulxayri va sedana moylari asosida minerallarga boy “ASXUM” va “ASQARAXUM” oziq-ovqat qo‘shilmalarini yaratish;

“ASXUM” va “ASQARAXUM” biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarini antiradikal faolligini aniqlash;

“ASXUM” va “ASQARAXUM” oziq-ovqat qo‘shilmalarini farmotoksikologik ko‘rsatkichini aniqlash;

“ASXUM” va “ASQARAXUM” oziq-ovqat qo‘shilmalarining yallig‘lanishga qarshi faolligini karragenin shishi modelida o‘rganish;

olingan yangi oziq-ovqat qo‘shilmalarini kimyoviy tarkibiga ko‘ra TIF, TN bo‘yicha yangi kod raqamlari ishlab chiqish;

**Tadqiqotning obykti.** sifatida gulxayri va sedana moylari, hamda ular asosida ishlab chiqilgan “ASXUM” va “ASQARAXUM” oziq-ovqat qo‘shilmalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti.** gulxayri va sedana moylari asosida biologik faol birikmalar saqlovchi yangi oziq-ovqat qo‘shilmalarini olish, ularni yallig‘lanishga qarshi xususiyatini aniqlash va kimyoviy tarkibi asosida tegishli sinflarga ajratish hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertasiya ishida kimyoviy analiz, optik emission spektrometriya, spektrofotometrik analiz, biologik yallig‘lanishga qarshi faolliklari, antioksidantlik, antiradikallik, farmotoksikologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

sovuq presslash uskunasida gulxayri va sedana o‘simliklari urug‘laridan moylarini ajratib olindi, moy ajratib olishning optimal parametrlari aniqlandi;

induksion bog‘langan plazmali emission spektroskopiya usulida gulxayri moyida 26 ta, sedana moyida 28 ta makro-va mikroelementlarni miqdori aniqlangan hamda ular asosida molyar tarkibidagi elementlarning miqdori ortib borish tartibi ishlab chiqilgan;

sedana urug‘larining tarkibidagi aminokislotalar va terpenoidlar miqdorini aniqlash, ularda yallig‘lanishga qarshi ijobiy ta’sir etuvchi arginin, glutamin kabi aminokislotalar hamda timoxinon,  $\alpha$ -va  $\beta$ -pinen moddalari mavjudligi ko‘rsatilgan;

gulxayri va sedana o‘simliklari moylarining kimyoviy tarkibi zamonaviy fizik-kimyoviy analiz usullari fosfomolibdenli, spektrofotometrik, Steven A, Cohen Daviel usullari yordamida aniqlangan;

gulxayri va sedana moylari asosida olingan oziq-ovqat qo‘shilmasining antioksidantlik faolligini E.Prieto tomonidan ishlab chiqilgan fosfomolibdenli usul

yordamida aniqlangan “ASXUM” 40% ga, “ASQARAXUM” esa 61,3% ga askorbin kislotaga nisbatan yuqori antioksidant ekanligi tasdiqlandi;

gulxayri va sedana moylari asosida minerallarga boy kuchli antioksidantlik va yallig‘lanishga qarshi faollikka ega “ASXUM” va “ASQARAXUM” oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat qo‘shilmalarini antiradikallik faolliklari aniqlash uchun barqaror radikal (DFPG) molekulalarini kamaytirish kinetikasini spektrofotometrik o‘lchash usulidan foydalandik natijada ASXUM glikloziddan 12,2%, ASQARAXUM esa 10% yuqori yaqin ekanligini aniqlangan;

“ASXUM” va “ASQARAXUM” oziq-ovqat qo‘shilmalarining farmo- toksikologik ko‘rsatkichi Lima usuli yordamida o‘rganilgan, natijada bu oziq-ovqat qo‘shilmalarini VI-zaharsiz birikmalar sinfiga mansub ekanligi isbotlangan;

“ASXUM” va “ASQARAXUM” oziq-ovqat qo‘shilmalarining yallig‘lanishga qarshi faolligini karragenin shishi modelida oziq-ovqat qo‘shilmalarimizning yallig‘lanishga qarshi xususiyatlari sintetik preparat “KYUPEN” ga nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan;

olingan yangi oziq-ovqat qo‘shilmalari kimyoviy tarkibiga ko‘ra sinflanib, ularga TIF TN bo‘yicha yangi xalqaro tovar kod raqami ishlab chiqilgan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** quyidagilardan iborat:

gulxayri va sedana urug‘i moylari asosida yallig‘lanishga qarshi samarali “ASXUM” va “ASQARAXUM” oziq-ovqat qo‘shilmalari yaratilgan;

Gulxayri va sedana moylari asosida olingan oziq-ovqat qo‘shilmalari uchun yangi xalqaro tovar kod raqami ishlab chiqilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Oziq-ovqat qo‘shilmalarining shifobaxshlik xususiyatlarini, element analiz, antioksidantlik, antiradikallik, farmo- toksikologik ko‘rsatkichi va yallig‘lanishga qarshi tahlil natijalari zamonaviy asbob-uskunalar “DD85-G” sovuq press uskunasi, analitik tarozida (FA220 4N), minerallash qurilmasi (MILESTONE Ethos Easy, Italiya), kislota tozalash (Distillacid BSB-939-IR) qurilmasi, induktiv plazmali optik emission spektrometr- (Avio 200 ISP-OES), FTK-aminokislotalarning identifikatsiyasi (Agilent 1200) xromatografiya, Discovery HS C18 kolonkasidan foydalanib o‘lchanganligi, tajribalarda olingan natijalarning zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida olingan natijalarga mos kelishi, olingan natijalarning ilmiy nashrlarda e‘lon qilinganligi va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yaratilgan oziq-ovqat qo‘shilmalarini kimyoviy tarkibi va shifobaxshlik xususiyatlari kimyoviy tahlil, spektrofotometrik metodlar yordamida aniqlanganligi, antioksidantlik, antiradikallik, farmotoksikologik ko‘rsatkichlari, yallig‘lanishga qarshi karogenin tahlillari olib borilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, gulxayri va sedana urug‘laridan ajratib olingan moylari asosida tayyorlangan “ASXUM” va “ASQARAXUM” nomli yangi oziq-ovqat qo‘shilmasi Andijon tumanida faoliyat olib borayotgan “SIFAT-AGRO-SERVIS” MCHJ da ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tarkibida yallig‘lanishga qarshi xususiyatga ega bo‘lgan biologik faol moddalar saqlovchi ayrim oziq-ovqat qo‘shilmalarini yaratish va ularni sinflash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Gulxayri va sedana urug‘lari moylari asosida olingan tabiiy yallig‘lanishga qarshi “ASXUM” va “ASQARAXUM” nomli yangi oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Milliy Sertifikatlash tizimi tomonidan muvofiqlik sertifikatini (№ UZ. SMT. 01. 0094. 96108495, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining № 31-8/602 sonli “Sanitariya- epidemiologiya xulosasi”) olingan. Natijada, mazkur oziq-ovqat qo‘shilmalarini talab darajasida identifikatsiyalash imkonini bergan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha “tarkibida gulxayri va sedana o‘simliklari bo‘lgan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari moylari” uchun 210690980 7 kod raqami ishlab chiqilgan va Davlat bojxona amalyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2023 yil №-17/05-23-037 ma‘lumotnomasi). Natijada shu kabi oziq-ovqat qo‘shilmalarini eksport va import qilishda ulardan undiriladigan boj to‘lovlarini nazorat qilish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, 4 ta ilmiy maqola respublika miqyosidagi va 2 ta ilmiy maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, 21 ta jadval, 16 ta rasmi grafiklar va 7 ta ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 102 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi, zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt hamda predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Yallig‘lanish jarayoni. Biologik faol qo‘shilmalarning ahamiyati va ularni kimyoviy tarkibi bo‘yicha sinflash. (adabiyotlar tahlili)**” deb nomlangan birinchi bobida gulxayri va sedana o‘simliklarining tabiatda tarqalishi, kimyoviy tarkibi hamda shifobaxshlik xususiyatlari, antioksidantlarning inson organizmidagi roli, inson organizmidagi yallig‘lanish jarayonlari, yallig‘lanishni davolovchi oziq-ovqat qo‘shilmalari, ularni kimyoviy tarkibi xorijiy va mahalliy adabiyotlarda yoritib berilgan. Tovarlar kimyosi fanining maqsad va vazifalari,

uyg'unlashgan tizim, tovar, nomenklatura, sinflash hamda tovarlarning kimyoviy tarkibi asosida sinflashni mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. "Xalq tabobati" fanining jamiyat sog'liqni saqlashdagi roli haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot obyektlarida olib borilgan tajribalar natijalari va ularning muhokamasi**" deb nomlangan ikkinchi bobida gulxayri va sedana urug'idan sovuq presslash usulida moy ajratib olishning optimal sharoitlari, ajratib olingan moylar tarkibidagi makro va mikroelementlar, sedana urug'i tarkibidagi aminokislotalar va terpenoidlarning miqdorini aniqlash natijalari tahlil qilingan, jumladan gulxayri va sedana moylarini biologik faolliklari, ASXUM va ASQARAXUM oziq-ovqat qo'shilmalarini antioksidantlik, antiradikallik, *in vivo* sharoitda farmakotoksikologik xususiyatlarini, yallig'lanishga qarshi xossalarni karragenin shishi modeli yordamida aniqlash natijalari muhokama qilingan.

*Gulxayri va sedana urug'laridan sovuq presslash usulida moy ajratib olishning optimal sharoitlari.* Buning uchun biz Germaniyaning "AEN Engineering GmbH & Co.KG" kompaniyasida ishlab chiqarilgan "DD85-G" sovuq press uskunasini qo'llanildi. Quyidagi jadvalda olib borilgan tadqiqot natijalari berilgan:

1-jadval

Nasadka tirqishining har xil o'lchamida va turli xil harorat rejimida 100 g gulxayri urug'idan moyni ajratish samaradorligi

Nasadka tirqishining o'lchami, mm	Shnek aylanish tezligi, ay/min	Harorat, °C	Moyning ajralish unumi, ml
6	12	66	8
8	12	54	7
<b>10</b>	<b>12</b>	<b>40</b>	<b>6</b>
12	12	36	5
14	12	32	4.34

1-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, gulxayri urug'laridan moy ajratib olishda nasadka tirqishi va shnekning aylanishi moylarning ajralish unumi orasidagi bog'liqliklar keltirilgan. Nasadkaning tirqishi 10 mm, shnekning aylanish tezligi 12 ayl/daqqa bo'lganda va 40 °C temperaturada 100 g gulxayri urug'idan moyning ajralish miqdori 6 ml ni tashkil etdi. Biz eng samarali deb shu usulni tanladik.

2-jadval

Nasadka tirqishining har xil o'lchamida va turli xil harorat rejimida 60 g sedana urug'idan moyni ajratish samaradorligi

Nasadka tirqishining o'lchami, mm	Shnek aylanish tezligi, ay/min	Harorat, °C	Moyning ajralish unumi, ml
6	12	62	30
8	12	51	28
<b>10</b>	<b>12</b>	<b>40</b>	<b>25</b>
12	12	36	20.7
14	12	32	16.7

2-jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra sedana urug'idan moyning ajralishi, nasadkaning tirqishi 10 mm, shnekning aylanish tezligi 12 ayl/min bo'lganda harorat 40 °C bo'lib 100 g sedana urug'idan moyning ajralish olish miqdori 25 ml ni tashkil etdi. Biz bu usulni eng samarador deb qabul qildik.

*Gulxayri urug'idan ajratib olingan moyning makro va mikroelementlar tahlili natijalari.*

Gulxayri moyi tarkibida makro-va mikroelementlar induktiv plazmali optik emission spektrometr (Avio 200 ISP-OES)da tahlil qilindi. Qurilmaning aniqlik darajasi yuqori bo'lib, eritma tarkibidagi elementlarni 10<sup>-9</sup> g aniqlikda o'lchash imkonini beradi. Quyidagi 3-jadvalda gulxayri tarkibidagi makro- va mikroelementlar natijalari keltirilgan:

3-jadval

Andijon viloyatida yetishtirilgan gulxayri urug'i 100 g moyidagi makro- va mikroelementlar miqdori

Element	P	Ca	K	Na	S	Mg	Sr	Al	Fe
Miqdori (mg /%)	135.9	112.8	82.9	47.9	42.6	39.0	5.2	6.7	4.4
Element	Li	Se	Cr	Zn	Mn	Pb	Sn	Cu	Te
Miqdori (mg /%)	0,615	0.568	0.544	0.532	0.05	0.204	0.106	0.079	0.066
Element	Mo	Ni	Sb	B	Cd	Ag	Hg	Co	
Miqdori (mg /%)	0.008	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	

Yuqoridagi 3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, mahalliy sharoitda yetishtirilgan gulxayri o'simligi moyi tarkibida 26 ta makro va mikroelementdan P, Ca, K, Na, S va Mg elementlari ko'p miqdorda ekanligi aniqlandi.

*Sedana urug'idan ajratib olingan moy tarkibidagi makro va mikroelementlar tahlili natijalari.* Sedana moyi tarkibida makro va mikroelementlar ham yuqorida ko'rsatilgan usul bilan tahlil qilindi.

Natijada mahalliy sharoitda yetishtirilgan sedana o'simligi moyi analiz qil inganda tarkibida 28 ta makro-va mikroelementdan 10 tasi S, Ca, K, Na, Sr, P, Al, Se, Mg 100 g moyda 0,932 mg dan-37,1 mg gacha miqdorini tashkil etishi aniqlandi. Organizm uchun zaharli bo'lgan Hg, Cd, Ag elementlari mavjud emasligi hamda Pb o'gir metali ruxsat etilgan miqdorlarga mos ekanligi eksperimental yo'l bilan aniqlandi. Quyidagi 4-jadvalda sedana moyi tarkibidagi makro va mikroelementlar natijalari keltirilgan:

4-jadval

Andijon viloyatida yetishtirilgan sedana urug'ining 100 g moyidagi makro va mikroelementlar miqdori

Element	S	Ca	K	Na	Fe	Sr	P	Al	Se	Mg
Miqdori (mg /%)	37.1	10.7	9.2	3.98	3.26	3.1	1.92	1.07	1.07	0.932
Element	Zn	Ni	Cr	Ba	Cu	V	Pb	Sn	Te	Sn
Miqdori (mg /%)	0.118	0.17	0.3	0.053	0.031	0.0	0.016	0.087	0.08	0.087
Element	Mn	Sb	Ag	Hg	Co	Cd	Mo	B		
Miqdori (mg /%)	0.072	0	0	0	0	0	0	0		

Gulxayri va sedana moylari tarkibidagi makro va mikroelementlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining №0366-19 sonli SanQvaM “Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini gigenik normativlari” ga solishtirdi, natajalar 5-jadvalda keltirilgan.


5-jadval

Gulxayri va sedana moyidagi og‘ir metall va zaharli elementlar ko‘rsatkichlari

Og‘ir metall, zaharli elementlar	Og‘ir metall, zaharli elementlar miqdori, mg/kg			Ko‘rsatkichlarning normativ hujjat talabiga mosligi
	Me‘yoriy hujjat bo‘yicha	Gulxayri	Sedana	
Kadmiy	0,05	0,00	0,00	Mos keladi
Qo‘rg‘oshin	0,3	0,204	0,016	Mos keladi
Mishyak	0,1	0,00	0,00	Mos keladi
Simob	0,05	0,00	0,00	Mos keladi
Nikel	0.7	0,00	0,17	Mos keladi


5-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, bizning moylarimiz tarkibida organizm uchun zararli bo‘lgan Hg, Cd, As, Pb, Ni kabi o‘gir va zaharli elementlar №0366-19 sonli SanQvaM “Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini gigenik normativlari” ga solishtirganda ko‘rsatilgan me‘yorlardan kamligi ayrimlari umuman moy tarkibida yo‘qligi isbotlandi.

*Sedana urug‘i tarkibidagi aminokislotalar va terpenoidlarni aniqlash natijalari.* Sedana urug‘i tarkibidagi erkin aminokislotalar FTK hosilalarining sintezi Steven A, Cohen Daviel usulida olib borildi.



1-rasm. Aminokislotalarning feniltiokarbomil (FTK) hosilalarini YuSSX yordamida olingan xromatogrammasi

Yuqoridagi 1-rasmda aminokislotalarning standart xromatogrammasi va ularning yutilish chiziqlari vaqtga bog‘liq holatlari keltirilgan.



2-rasm. Sedana urug‘i tarkibidagi aminokislotalarni YuSSX yordamida olingan xromatogrammasi

2-rasmda sedana urug‘i tarkibidagi aminokislotalarning YSSX da olingan xromatogrammasi ko‘rsatilgan bo‘lib urug‘ tarkibida jami 20 xil aminokislota aniqlandi.


6-jadval

Sedana urug‘i tarkibidagi aminokislotalar miqdori

Aminokislotalar nomi	Miqdori, mg/g	Aminokislotalar nomi	Miqdori, mg/g
Asparagin kislota	0,18	Prolin	0,05
Gulutamin kislota	0,24	Tirozin	0,32
Serin	0,02	Valin	0,17
Glisin	0,08	Metionin	0,05
Asparagin	0,08	Izoleytsin	0,06
Glutamin	0,11	Leytsin	0,10
Sistein	0,31	Gistidin	0,00
Treonin	0,06	Triptofan	0,24
Arginin	0,22	Fenilalanin	0,13
Alanin	0,15	Lizin	0,01
Jami	2,59		

6-jadvalda ko‘rinib turibdiki, sedana urug‘i tarkibida erkin aminokislotalardan tashqari to‘ldirilmaydigan (almashinmaydigan) barcha aminokislotalar mavjud bo‘lib, ulardan valin, treonin, metionin, izoleytsin, lizin, fenilalanin, arginin sifatida aks etgan.

Shuningdek, sedana urug‘i tarkibida uchraydigan va shifobaxsh xususiyatlarga ega bo‘lgan terpenoidlar ham aniqlandi, natijalar 3-rasmda keltirildi. Sedana urug‘laridagi terpenoidlarning tarkibida 13,1% miqdorda aniqlangan timoxinon yallig‘lanishga qarshi va prostata bezi o‘smasiga qarshi faolligi mavjudligi ma‘lum. O‘z tarkibida 13,8%  $\alpha$ - pinen va 1,7%  $\beta$ - pinenlarni saqlovchi moylar angina, laringit, sinusit kabi yallig‘lanishlarda ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.




3-rasm. Sedana urug‘ining etanoli ekstraksiyasidagi terpenoidlarni xromatogrammasi

Ushbu 3-rasmda sedana urug‘i tarkibida terpenoidlarni ushlanish vaqtlari ko‘rsatilgan.

*Gulxayri va sedana moylarining har xil hajmiy nisbatdagi aralashmalarini antioksidantlik faolligi va tannarxiga ko‘ra yangi oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab*

*chiqish.* Gulxayri va sedana o‘simliklari moylarining turli hajmiy nisbatlarda aralashtirilib, ularning antioksidantlik faolligini P.Prieto tomonidan ishlab chiqilgan fosfomolibdenli usuli yordamida spektrofotometrda foydalanib aniqlandi.



4-rasm. Turli nisbatdagi gulxayri va sedana moylarining fosfomolibdenli usulidagi 7.5% li eritmalarining antioksidantlik ko‘rsatkichlari

Tadqiqot davomida namunalarning 7,5% li eritmalarining AA% ko‘rsatkichlari aniqlandi, olingan natijalar 2.7-jadvalda ko‘rsatildi.

7-jadval

Gulxayri va sedana moylari aralashmasining antioksidantli faolligi

Gulxayri va sedana moylari aralashmasi	3:1	2:1	1:1	1:2	1:3	1:4	1:5	1:6
AA%	29,8±1,2	33,4±1,2	38,4±1,8	42,6±2,2	26,5±1,1	51,3±2,4	30,2±1,4	24,3±1,2

7-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, gulxayri va sedana moylari hajmiy nisbatdagi aralashmalarida antioksidantlik xususiyati fosfomolibdenli usul yordamida analiz qilinganda yuqori AA% 1:2 (42,6%) va 1:4 (51,3%) hajmiy nisbatlarda namoyon bo‘lmoqda.

8-jadval.

30 ml gulxayri va sedana moylarining turli hajmiy nisbatdagi aralashmalarini tannarxi ko‘rsatkichlari (so‘m)

Gulxayri va sedana moylari aralashmasi	3:1	2:1	1:1	1:2	1:3	1:4	1:5	1:6
Mahsulot tannarxi (so‘m)	75900	67900	51800	35700	27700	22880	19700	17500

Yuqorida keltirilgan 8-jadvalda gulxayri va sedana moylarining har xil nisbatdagi aralashmalari tarkibida sedana moyining hajmi ortgan sari mahsulotning tannarxi pasayib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Biz biologik faol moddalarni o‘zida ko‘proq saqlagan antioksidantlik faolligi yuqori bo‘lgan, organizmning turli xil oksidlanish jarayonlariga qarshi ta’sir ko‘rsata oladigan moylar aralashmalariga e’tibor qaratdik, shunga ko‘ra biz gulxayri va sedana moylarining yuqori antioksidantlik faollik ko‘rsatgan 1:2 kompozitsion aralashmasini ASXUM, 1:4 moylar aralashmasini esa ASQARAXUM deb nomladik.

*ASXUM* va *ASQARAXUM* oziq-ovqat qo‘shilmasini antioksidantlik faolliklarini aniqlash natijalari. Namunalarning antioksidant faolligini E.Prieto tomonidan ishlab chiqilgan fosfomolibdenli usul yordamida aniqlandi. Tadqiqotimiz davomida Andijon viloyati iqlim sharoitida mahalliyashtirilgan gulxayri va sedana moylari aralashmasining fosfomolibden usul yordamida antioksidantlik faolligi o‘rganildi. Mazkur metod asosida antioksidantlar tomonidan Mo (VI) ioni Mo (V) gacha qaytarilishi natijada eritmaning optik zichligi o‘zgarishi yotadi.


Bu yerda Mo(VI) ioni Mo (V) ga qaytarayotgan modda moyimiz tarkibidagi to‘yinmagan karbon kislotalar hisoblanadi, sababi gulxayri moyining 86.2% ni olein, linol va linolein kislotalar tashkil qiladi. Sedana moyimizning 80% da esa to‘yinmagan yog‘ kislotalari uchraydi. Bu joyda oksidlanish-qaytatilish reaksiyasi sodir bo‘lib, moylar tarkibidagi to‘yinmagan yog‘ kislotalar tarkibidagi qo‘sh bog‘lar saqlagan uglerod atomlari qaytaruvchi vazifasini bajaradi va moylar reaksiyaga kirishib emulsiya chin eritma holatiga o‘tadi.

9-jadval

“ASXUM” va “ASQARAXUM” oziq-ovqat qo‘shilmalarining turli hajmdagi antioksidantlik faolligini AA% standart askorbin kislotaga solishtirish

№	Mahsulot nomi	Moylar aralashmasini 1 ml fosfomolibdenli eritmaga quyidagi hajmda qo‘shilgandagi antioksidantlik faollik AA%				
		10 mkl	25 mkl	50 mkl	75 mkl	100 mkl
1	ASQARAXUM	6,2±1,4	14,5±2,2	38,4±2,3	58,1±2,1	86,1±3,4
2	ASXUM	5,7±1,2	11,7±2,1	28,3±2,8	42,4±2,4	64,8±3,4
3	Askorbin kislotasi	5,4±1,2	5,9±1,4	18,6±2,1	19,4±2,4	24,8±2,8

9-jadvalda ASXUM va ASQARAXUM oziq-ovqat qo‘shilmalarining har xil konsentratsiyali eritmalarining antioksidantlik faolliklari (AA%) standart sifatida ishlatiladigan askorbin kislotaga nisbatan yuqorida ekanligi ko‘rinadi. Buni quyidagi 5-rasmdan yaqqolroq kuzatish mumkin. Tadqiqot natijalari asosida namunalarning askorbin kislotasiga nisbatan AA% diagramma tarzida berilgan:



5-rasm. ASQARAXUM va ASXUM oziq-ovqat qo‘shilmalarining AA%


5- rasmdagi natijalarni kuzatganimizda, ASXUM oziq- ovqat qo‘shilmasi uchun 100 mkl konsentratsiyali namunasida eng yuqori (64.8 %), ASQARAXUM oziq-ovqat qo‘shilmasi esa (86.1%) antioksidant faollikka AA% ega ekanligi eksperimental isbotlandi.

“ASXUM” oziq-ovqat qo‘shilmasini antiradikal faolliklari tahlili. ASXUM oziq-ovqat qo‘shilmasini antiradikal faolligi (ARF), erkin radikal DFPG (2,2-difenil-1-pikrilhidrazil) ga nisbatan tekshirildi.

ASXUM oziq-ovqat qo‘shilmasining ARF ni solishtirish uchun 50 mkl/ml konsentratsiya tanlangan. ASXUM oziq-ovqat qo‘shilmasini, biz tegishli erituvchi DMSO (dimetilsulfooksid) va 30% etanolda eritib hosil bo‘lgan eritmani (DMSO) bilan 1: 100 nisbatda suyultirdik. DFPG ning konsentratsiyasi 0,1 M ni tashkil qiladi. O‘lchovlar 20°C da amalga oshirildi.

ASXUM oziq-ovqat qo‘shilmasini DFPG eritmasiga qo‘shilganda, DFPG eritmasining optik zichligining eksperimental pasayishi kuzatiladi, bu ularning yuqori ARF ga ega ekanligidan dalolat beradi . ASXUM oziq-ovqat qo‘shilmasi uchun ARF 100 marta suyultirilgandan so‘ng baholandi, bu esa ASXUM oziq-ovqat qo‘shilmasida antiradikal qobiliyatiga ega ekanligi ko‘rsatadi.


Quyidagi 6-rasmda ASXUM oziq-ovqat qo‘shilmasining eksperimental yo‘l bilan aniqlangan ARF berilgan:



6-rasm. ASXUM oziq-ovqat qo‘shilmasining antiradikal faolligining vaqtga nisbatan ko‘rsatkichi

Yuqoridagi 6-rasmdagi diagrammadan ma’lum bo‘ldiki, ASXUM oziq-ovqat qo‘shilmasining antiradikal faolligini (ARF) eng yuqori natijani 20 daqiqada 47,8% bilan namoyon qiladi. So‘ngra sekin-asta ARF kamayib 30 daqiqada 26,1% ga pasayib ketishi kuzatildi. Demak, namunaning ARF namoyon qilishi uchun eng optimal vaqt 20 daqiqa ekanligi aniqlandi.

“ASQARAXUM” oziq-ovqat qo‘shilmasini antiradikal faolliklari tahlili. Namunalarining antiradikal faolligini standart uslubda, 1,1–difenil–2–pikrilgidrazil (DFPG) spirtli eritmasining optik zichligi kinetikasini o‘lchash asosida aniqlandi.



№-1 gliklozid , № 2- kvartetin, №-3 ASQARAXUM

7-rasm. DFPG etanoli eritmasining nisbiy optik zichligini namunalar (400 mk/l) mavjud sharoitda o‘lchash natijalari

Yuqoridagi 7-rasmda, ASQARAXUM ning quyi konsentratsiyali eritmasi ARF kvartsetinga yaqin, yuqori konsentratsiyali eritmasi esa gliklozidnikidan yuqori antiradikallik xossasini namoyon qilishini ko‘rishimiz mumkin.

*Yallig‘lanishda ishlatiladigan ASXUM va ASQARAXUM oziq-ovqat qo‘shilmasini farmotoksikologik xususiyatlari.* Yallig‘lanishda ishlatiladigan ASXUM va ASQARAXUM oziq-ovqat qo‘shilmasini o‘tkir zaharlilik ko‘rsatkichlari aniqlandi. ASXUM oziq-ovqat qo‘shilmasi sichqonlarga 5000 va 10000 mg dozada kiritilganida o‘tkir zaharlash ta‘siri oqibatlarini kuzatilmadi. Butun tajriba davomida kuzatilganida yuqorida keltirilgan dozalarda hayvonlar o‘limi qayd etilmadi (5/0).

10-jadval

ASXUM va ASQARAXUM oziq-ovqat qo‘shilmalari hamda sedana va gulxayri moyini o‘tkir zaharlilik ko‘rsatkichlari, n=5

Tajriba	Hayvon turi, jinsi	Doza mg/kg, ml	O‘lgan hayvon soni	Hayvon massasi, g (1 kun)	Hayvon massasi, g (7 kun)	Hayvon massasi, g (14 kun)	LD <sub>50</sub> ishonch oralig‘i
<i>ASXUM</i>	Erkak sichqon	5000	5/0	21	22	25	>10000 mg/kg
		10000	5/0	21	23	25	
<i>ASQARAXUM</i>		5000	5/0	20	22	24	
		10000	5/0	22	24	26	
<i>Sedana moyi</i>		5000	5/0	21	24	25	
		10000	5/0	20	21	23	
<i>Gulxayri moyi</i>		5000	5/0	21	24	26	
		10000	5/0	21	23	25	
<i>Nazorat</i>		0,5 ml	5/0	22	24	26	-

Yuqoridagi 10-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhlaridagi hayvonlar nazorat guruhi bilan solishtirilganda hayvonlar tana vazni kamayishi kuzatilmadi. Olingan natijalardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, ASXUM va ASQARAXUM oziq-ovqat qo‘shilmalari, sedana va gulxayri namunalari bir marotaba sichqonlar oshqozoniga kiritilgandagi o‘rtacha o‘lim dozasi (LD<sub>50</sub>) >10000 mg/kg dan yuqori ekanligi, VI–zaharsiz birikmalar sinfiga mansub ekanligi aniqlandi.

*ASXUM va ASQARAXUM oziq-ovqat qo‘shilmasini in vivo sharoitida yallig‘lanishga qarshi faolligini karragenin shishi modeli yordamida aniqlash natijalari.* Tajriba 6 guruhdan iborat bo‘lib, har bir guruh uchun 5 boshdan sichqonlar olindi. Sintetik Kyupen tabletkasi sichqonlarga 55 mg/kg terapevtik dozada kiritildi. Tatqiqot guruhlarini sifatida yangi sedana, gulxayri, ASXUM va ASQARAXUM oziq-ovqat qo‘shilmalari 5 kun davomida 0,04 ml hajmda oshqozonga maxsus zond yordamida kiritildi va 5- kun kiritilganidan 1 soat o‘tgach sichqonlarning orqa chap oyoq panjasining aponevroz sohasiga karrageninning 1% eritmasi 0,05 ml hajmda kiritildi. Nazorat guruhi hayvonlariga esa teng hajmda distillangan suv xuddi shu tarzda kiritildi. Tajriba va nazorat guruhlarida karragenin

in'eksiya qilinishidan oldin hayvonlar orqa oyoq panjasining dastlabki hajmlari onkometrik o'lchandi. Preparatlarning yallig'lanishga qarshi ta'siri yallig'lanish chaqirilgandan keyin 3,5 soat o'tgach qayd etildi. Shish hajmi yallig'lanmagan va yallig'langan orqa oyoq panja hajmlari orasidagi farqqa asosan baholandi.

11-jadval

ASXUM va ASQARAXUM oziq-ovqat qo'shilmalari hamda sedana va gulxayri o'simliklari urug'idan olingan moyli ekstraktlarning sichqonlarda *in vivo* sharoitda karrageninli yallig'lanishga ta'siri.

Guruhlar	Doza, mg/kg, ml	3,5 soatdan keyin			
		Shish hajmi, %	EQF, %	Shish og'irligi, mg, %	EQF, %
Nazorat	0,2 ml	82,0±8,4	-	36,5±1,6	-
Kyepen	55 mg/kg	44,0±4,0	56,0	30,7±1,5	15,9
Sedana moyi	0,2 ml	52,6±6,5	47,4	31,1±3,0	14,8
Gulxayri moyi	0,2 ml	48,8±5,3	51,2	28,5±3,5	21,9
ASXUM oziq-ovqat qo'shilmasi	0,2 ml	36,4±3,0	63,6	26,8,5±2,0	26,6
ASQARAXUM oziq-ovqat qo'shilmasi	0,2 ml	25,0±4,3	75,0	18,0±2,5	50,7

11-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, ASXUM va ASQARAXUM oziq-ovqat qo'shilmalarining 0,2 ml dozalarda sichqonlarga kiritilganda, mos ravishda yallig'lanishga qarshi eng yuqori faolliklar 63,6 % va 75 % ni namoyon qildi. Bu oziq-ovqat qo'shilmalarining faolligi sintetik preparat kyupendan yuqoriligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Gulxayri va sedana o'simliklari moylarining kimyoviy tarkibini fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash hamda biologik faolligini *in vivo* sharoitida o'rganish (Eksperimental qism)”** deb nomlangan uchinchi bobida gulxayri va sedana urug'laridan moy ajratib olishning optimal sharoitlari, moylarning makro va mikroelementlar tarkibini aniqlash usullari, sedana urug'ining aminokislota va terpenoidlar analizi, ASXUM va ASQARAXUM oziq-ovqat qo'shilmalarining antioksidantlik va antiradikallik faolligini, *in vivo* sharoitda farmotoksikologik va yallig'lanishga qarshi faolligini karragenin shishi modeli yordamida aniqlash tajribalari bayoni keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“gulxayri va sedana urug'i moylari asosida yangi oziq-ovqat qo'shilmalari olish texnologik sxemasi va ularning tarkibiga ko'ra sinflash”** deb nomlangan IV-bobida, gulxayri va sedana o'simliklarini moylari asosida “ASXUM” va “ASQARAXUM” nomli oziq-ovqat qo'shilmalarini tayyorlash va sanoat usulida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va yangi oziq-ovqat qo'shilmalarining kimyoviy tarkibiga ko'ra sinflash va TIF, TN bo'yicha tovar kodini ishlab chiqish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Sanoatda gulxayri va sedana moylarini kompazitsion aralashmasidan tayyorlangan “ASXUM” va “ASQARAXUM” nomli oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqarish o‘zaro quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirildi. Gulxayri va sedana urug‘lari havo purkagich yordamida organik aralashmalar va puch urug‘lardan tozalandi. So‘ngra tozalangan urug‘ suv bilan yuvilib, issiq havoda quritildi. Undan so‘ng sovuq preslash uskunasida moylari ajratib olindi. Sovuq preslash uskunasida 2 xil mahsulot moy va moysizlangan kunjara ajratildi. Ajralib chiqqan moy ikkinchi komponent moyi bilan o‘zaro nisbatda aralashtirildi va qadoqlandi, so‘ngra omborga yuborildi.

O‘zbekistonlik olimlar kimyo fanlari doktori, professor I.R.Asqarov va T.T.Risqiyev tomonidan taklif etilgan “Tovarlar kimyosi” fani tovarlar kimyosining jadal rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Tovarlarining TIF, TN ga tegishli 10 raqamli xalqaro kod raqamiga mos kelishini belgilovchi me‘zoniy ko‘rsatkichlar ko‘p tovarlar uchun mukammal emas va ko‘plab mamlakatlarda shu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tovarlarining xalqaro kod raqamlarini aniqlash ularning kimyoviy tarkibi, olinishining texnologik jarayonlari, eksport yoki import qilinayotgan tovarlarning sifatini nazorat qilish, ularga sifat va boshqa sertifikatlar berish masalalarini ilmiy-tadqiqotlar natijalariga muvofiq asoslash imkonini yaratadi.

“Tovarlar kimyosi” ixtisosligi doirasida ilmiy izlanishlar olib borish va bojxona ekspertizasini o‘tkazish orqali davlat byudjetiga qo‘shimcha tarzda mablag‘lar undirilishi ixtisoslikning iqtisodiy samaradorligi yuqori ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan, yangi “ASXUM” va “ASQARAXUM” nomli oziq-ovqat qo‘shilmalariga, tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha kod raqamlari berilishi maqsadga muvofiqdir. Taklif etilayotgan TIF, TN tovar kod raqami 210690980 7 ishlab chiqildi hamda O‘zbekiston Respublikasi bojxona amaliyotiga joriy etildi.

12-jadval

Taklif etilayotgan TIF TN tovar kodi

Taklif etilayotgan TIF TN tovar kodi			
TIF TN kodi	Pozitsiyaga izoh	TIF TN kodi	Pozitsiyaga izoh
2106	Boshqa joyda ko‘rsatilmagan yoki kiritilmagan oziq-ovqat mahsulotlari:	2106 90 980	--- boshqalar
2106 90	– boshqalar	<b>210690980 7</b>	---- Gulxayri va sedana moylaridan tayyorlangan tabiiy biologik faol ASXUM, ASQARAXUM oziq-ovqat qo‘shilmasi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2023yil 31-maydagi Markaziy bojxona laboratoriyasi tomonidan amaliyotga joriy etish bo‘yicha №17/05-23-037 sonli ma‘lumotnomasi rasmiylashtirildi.

## XULOSA

**“Gulxayri va sedana o‘simliklari asosida xalq tabobati uchun tovarlar olish va ularni sinflash”** mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Gulxayri va sedana urug‘laridan sovuq presslash usulida sanitariya talablariga mos tozalangan yuqori biologik faollikka ega moy ajratib olish usuli ishlab chiqildi. Moy ajratib olishning optimal parametrlari aniqlandi.

2. Ajratib olingan o‘simlik moylari tarkibidagi makro va mikroelementlar miqdorini induktiv bog‘langan plazmali emission spektrometriya yordamida aniqlash asosida moylar fosfor, kalsiy, kaliy, natriy, oltingugurt, mag‘niy, stronsiy, fosfor elementlariga boy bo‘lib, ularning tarkibida zaharli elementlar va og‘ir metallarning miqdori kam ekanligi aniqlandi.

3. Gulxayri va sedana moylarining har xil nisbatdagi aralashmasining tannarxi va fosfomolibdenli usul yordamida antioksidantlik faolligi o‘rganildi. Moylar aralashmasining tannarxi va antioksidantlik faollik qiymatlari asosida yuqori biologik faol “ASXUM” va “ASQARAXUM” oziq-ovqat qo‘shilmasi ishlab chiqildi.

4. “ASXUM” va “ASQARAXUM” oziq-ovqat qo‘shilmalarining antiradikal faolliklari glikloziddan yuqori kvertsetindan kam ekanligini ko‘rsatdi.

5. “ASXUM” va “ASQARAXUM” oziq-ovqat qo‘shilmalarining farmotoksikologik darajasini laboratoriya sharoitida *in vivo* usulida o‘rganildi va oziq-ovqat qo‘shilmalarining LD<sub>50</sub> qiymati 5000 mg/kg dan katta bo‘lib, ularning zaharsizligi tasdiqlandi va bu oziq-ovqat qo‘shilmalarimiz VI-zaharsiz birikmalar sinfiga tegishli ekanligi aniqlandi.

6. “ASXUM” va “ASQARAXUM” oziq-ovqat qo‘shilmalarining yallig‘lanishga qarshi faolligini karragenin shishi modeli yordamida o‘rganildi. Mazkur oziq-ovqat qo‘shilmalari yallig‘lanishga qarshi qo‘llanilgan qiyosiy kyupen farmakopeya preparatiga nisbatan ham yuqori natija ko‘rsatdi, kyupen preparatining yallig‘lanishga qarshi faolligi ushbu tadqiqotda 56% bo‘ldi, sedana va gulxayri urug‘i moylari 47,4 % va 51,2 %, ASXUM-63.6 %, ASQARAXUM-75 % natija ko‘rsatdi.

7. “ASXUM” va “ASQARAXUM” oziq-ovqat qo‘shilmalari uchun texnik shart, texnik yo‘riqnoma tuzildi, hamda ularni “SIFAT AGRO SERVIS” MCHJ da ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Sertifikatlash tizimi tomonidan muvofiqlik sertifikatini (№ UZ.SMT.01.0094 .96108495, O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligining № 31-8/602 sonli “Sanitariya-epidemiologiya” xulosasi) olingan.

8. Olingan yangi oziq-ovqat qo‘shilmalarini kimyoviy tarkibiga ko‘ra TIF, TN bo‘yicha 230690980 7 yangi tovar kod raqami ishlab chiqildi va bojxona amaliyotiga joriy etildi (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2023 yil 31-maydagi №17/05-23-037-sonli ma’lumotnomasi).

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
№ DSc.03/29.10.2021.К/Т.60.05 ПРИ АНДИЖАНСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ХУСАНОВ УМИДЖОН ШОКИРЖОНОВИЧ**

**ПОЛУЧЕНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ ПРЕПАРАТОВ ДЛЯ  
НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ НА ОСНОВЕ РАСТЕНИЙ АЛТЕЯ  
ЛЕКАРСТВЕННОГО И ЧЕРНУШКИ ПОСЕВНОЙ**

**02.00.09 – ХИМИЯ ТОВАРОВ  
14.00.41 – НАРОДНАЯ МЕДИЦИНА**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Андижан - 2023**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2022.4.PhD/K573.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета ([www.adu.uz](http://www.adu.uz)) и в Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научные руководители:** **Аскарров Иброхим Рахмонович**  
доктор химических наук, профессор

**Муминов Муйдинжон**  
доктор химических наук, и.о. профессора

**Официальные оппоненты:** **Хожиматов Махсадбек Муйдинович**  
доктор химических наук, доцент

**Дехканов Рахматилла Султанович**  
кандидат химических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Кокандский государственный педагогический институт**

Защита диссертации состоится «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 г. в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 при Андижанском государственном университете. (Адрес: 170100, г. Андижан, улица Университетская, 129. Тел.: (99874)223 88 30, факс: (99874) 223 84 33).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета (зарегистрирована за №\_\_\_\_). (Адрес: \_\_\_\_\_, г. Андижан, улица Университетская, 129. Тел.: (99874)223 88 30, факс: (99874) 223 84 33) e-mail: [agsu\\_info@edu.uz](mailto:agsu_info@edu.uz)  
Автореферат диссертации разослан «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года.

(протокол реестра рассылки № \_\_\_\_\_ от «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года.)

**Х.Исаков**

Председатель Научного совета по присуждению  
ученых степеней, доктор технических наук, профессор

**М.М.Муминжонов**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению  
ученых степеней, доктор химических наук

**Ш.В. Абдуллаев**

Председатель научного семинара при Научном совете  
по присуждению ученых степеней,  
доктор химических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Одной из актуальных проблем в мире является увеличение ассортимента натуральных продуктов питания на основе местного сырья, обладающих свойствами профилактики и лечения воспалений. Одной из важных задач является разработка и применение в народной медицине натуральных, безвредных, экологически чистых пищевых добавок на основе местных лекарственных растений, содержащих биологически активные соединения, макро- и микроэлементы, обладающих противовоспалительными свойствами, заменяющих широко применяемые в народной медицине синтетические лекарственные средства.

В целях профилактики и лечения воспалительных заболеваний человека во всем мире ведутся научно-исследовательские работы по разработке натуральных пищевых добавок, содержащих химические соединения, обладающих противовоспалительными свойствами, определению их химического состава. В связи с этим выявление лекарственных растений, содержащих химические соединения, улучшающие обмен веществ, предотвращающие воспаление, на основе которых используются методы народной медицины для укрепления защитной системы человеческого организма в качестве вспомогательного средства для лечения и профилактики синтетических лекарственных средств, содержащих природные соединения, такие как витамины, полифенолы,  $\beta$ -каротин, аминокислоты, макро- и микроэлементы, разработка, классификация по ТН ВЭД на основе химического состава, а также внедрение в практику натуральных пищевых добавок, имеют важное практическое значение.

